

INSON HAYOTIDA TARBIYANING O'RNI VA AHAMIYATI

*A.Qodiriy nomidagi JDPU Maktabgacha ta'lim
fakulteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi
3-kurs talabasi O'razaliyeva Lobar*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiya, tarbiya jarayonining mazmuni, va mohiyati, tarbiyaning inson hayotidagi ahamiyati, Sharq va garbage mutaffakkirlarining tarbiyai haqidagi pedagogik qarashlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: tarbiya, tarbiya maqsadi, tarbiya qonuniyatlari, sharq va g'arb mutaffakirlari pedagogik qarashlari, "Avesto".

Tarbiya shaxsda muayyan jismoniy , ruhiy axloqiy , ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayondir. Shuningdek insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yig'indisi. Tarbiya insonning insonligini taminlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud emas. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi. Pedagogik adabiyotlarda tarbiya atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda tarbiya inson shaxsini shakllantirishga , using jamiyat ishlab chiqarish va ijtimoiy madaniy va marifiy hayotda faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar , yig'indisini Anglatsa, tor ma'noda tarbiya shaxsning jismoniy Rivoji , dunyoqarashi, ma'naviy axloqiy qiyofasi, estetik didining o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning , umuman , jamiyat, a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga mahkumdur. Tarbiya jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha izohlab kelingan. Jumladan, Sho'rolar davrida tarbiya orqali har qanday odamni istagan ijtimoiy qiyofaga solish mumkin degan qarash hukmron bo'lgan va shuning uchun tarbiyalanuvchi shaxsining tarbiyaga berilish yoki berilmaslik xususiyatlarining hisobga olinmasligi , tarbiyaviy tadbirlarga mahliyo bo'lishdek pedagogik xatolikka olib keldi. Buning natijasida tarbiya maqsadsiz bo'lib qoldi. Tarbiyalanuvchilarga alohida shaxs sifatida emas, istalgan ijtimoiy yo'nalishga solinishi mumkin bo'lgan qiyofasiz to'da , olomon tarzda qarash qaror topdi. Bu hol tarbiyaning samarasizligiga olib keldi. Chunki tarbiyaning asosiy obyekti bo'lmish shaxs va uning o'ziga xoslik jihatlari unutilgan edi. Sho'ro pedagogik tizimidagi kamchiliklarning ildizi asosan, mana shu yondashuv tarziga borib taqalgan. Nafaqat oila , balki yer sayyorasidagi har bir mamlakatning gullab yashnashi undagi yashovchi xalqlarning farog'ati ham shak shubhasiz ta'lim va tarbiya

tufaylidir. Hayot olamida shubhasiz tarbiya singari insoniyatga ta'sirli nqrsa yo"qdir. Shu sababdan qadimdan mashxur donishmandlar tarbiya tog'riisida qimmatli fikrlarni yozib qoldirgan. Yoshlarning tarbiyasi ularning ilmi va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish barcha zamonlarda muhim vazifa hisoblangan.

Xitoy donishmandi Syun Szi "chaqaloar hamma yerda bir xil yig'laydi. Katta bo'lganlarida esa turli qiliq qilishadi. Bu tarbiyaning oqibati" deb yozgan edi. Olmon faylasufi Immanuil Kant o'z asarida "Inson faqat tarbiya orqali inson bo'ladi. Uning qandayligi tarbiyaning natijasidir" degan fikrni bildirgan edi. Tarbiya borasida Saddiy sheroziyning shunday misralari mavjud. " Minbarning poyida tursa ham eshshak, Tarbiya yuqmaydi bo"lmaydi odam. Tarbiya ko'rmayin ulg'aysa kishi, Eshshak bo'lib qolur yuzga kirsa ham. Tarbiyaga e'tiborsizlikning oqibati nimalarga olib kelishini o'z vaqtida Abdulla Avloniy kuyunib "Bugungi kunda jamiyatimizning yuzini qora qiluvchi , pastkashlar , yomonlar. Beboshlar , o'g'rilar , giyohvandlar va nashavandlar. Kecha tarbiyasiga e'tibor berilmagan bolalardir" deb yozib qoldiradi. Adabiyotshunos olim Abdurauf Fitrat " Xalqning harakat qilishi davlatmonand bo'lishi , zaif bo'lib xo'rlikka tushishi , faqirlik, libosini kiyib , baxtsizlik yukini tortib e'tibordan qolishi o'zgalarga tobe va qul asir bo'lishi bolalikdan o'z ota onalaridan olgan tarbiyasiga bog'liq . Bolalar axloqiy tarbiyasini muhitdan oladilar, boshqacha qilib aytganda, bolalar suvga o'xshaydi . Suv idishning shaklini olganidek bolalar ham muhitning odob axloqini qabul qiladilar" deydi. Alixonto'ra Sog'unliy tarbiya xususida shunday yozadi, "Yolg'iz insongina emas barcha jonlik mavjudotlarda , bilim tarbiya ta'siri ko'z oldimizda ko'rilib buning natijalari butun dunyoga tarqalib turmoqda. O'qitish, o'rgatish buyon tursin suhbat o'zi ham suhbatdoshlarga o't bilan suvdek tez o'tadi. Shuning uchun ham har kimga suhbat yo'ldoshlariga qarab baho beriladi. Ulug' mutaffakkir Abu Ali ibn Sino nazdida bolalar tarbiyasini barvaqt boshlagan maqul , bola tana bo'g'inlari barqaror bo'lgan , uning tili, to'g'ri ravon gapirish va quloqlari tinglash, va o'zgalar so'zlarini qabul qilish hamda o'rganilayotgan narsaga tabbiy moyillik paytidan boshlab uni ilmlar va axloq odob asoslariga o'rgatib borish lozim.

Tarbiya jarayoni shaxsning muayyan maqsad asosida ijtimoiy hayotga tayyorlovchi tarixiy- ijtimoiy tajribaga suyangan holda olib boruvchi faoliyat jarayonidir. Tarbiya xususida taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy shunday deydi: "Al hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir" . Ushbu fikrlardan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, shaxs tarbiyasi xususiy emas , balki ijtimoiy milliy ilmdir. Zero xar bir xalqning taraqqiy etishi , davlatlarning qudratli bo'lishi, avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Tarbiya shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik harayon bo'lib, tarbiyalanuvchilar shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkonini beradi. . Demak tarbiya ijtimoiy hodisa bo'lib, insonlarning shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy ma'naviy qadriyatdir. Tarbiyaning birinchi va

eng muhim qonuniyati, uning ijtimoiy muhitning obektiv va subyektiv omillariga bog'liqligidir. Tarbiyaning ikkinchi muhim qonuniyati ularning shaxs rivojlanishi bilan birligi, o'zaro aloqadorligi va bog'liqligidir. Tarbiya pedagogikaning asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, insonni ijtimoiy tajribalar bilan uning barcha shakllarida bilim, xayajon, estetika, odob-axloq qoidalari bilan tanishtirish va individlarning o'ziga xos jihatlarini imkoniyatlari va layoqatlarini rivojlantirish bo'yicha faoliyat hisoblanadi. Insoniyat yaratgan ma'naviy boyliklar bisotida donishmandlarning pand nasixatlari umrboqiy, ma'naviy boylik hisoblanadi. Chunki ular hayotdan hayot tajribalaridan kelib chiqqan va ezgu orzu niyatni ifodalaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, eng qadimgi tarbiya haqidagi fikrlar bizgacha bevosita yetib kelmagan. Bu fikrlar insonning shakllanishida moddiy va ma'naviy madaniyatining yillar davomida rivojlanishi natijasidan dalolat beradi. Shuning uchun ham har bir davrda yashab ijod etgan mutaffakkir allomalarimiz "tarbiya" so'zini turlicha izohlashgan. "Tarbiya-arabcha so'zdan olingan bo'lib, parvarish qilmoq, ta'lim bermoq, o'rganish, odob o'rgatish, mehribonlik ko'rsatish, himoya qilish kabi manolarni anglatadi. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lmish "Avesto" katta ahamiyatga ega. Avestoda inson tarbiyasiga, insonlarning jamiyatda tutgan o'rniga munosabati to'lliqlik yoritilgan. Zardusht ta'limotida tarbiya haqida quyidagicha fikrlar bildirilgan. Tarbiya hayotning eng muhim turgagi va tayanchidir. Har bir yoshni shunday tarbiyalash kerakki, u avvalo yaxshi o'qishni, so'ngra yozishni o'rganishi bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin deb aytadi. Tarbiya kishilik jamiyatining oaydo bo'lishi bilan yuzaga keladi., taraqqiy etadi, jamiyatning o'zgarishi bilan tarbiya ham o'zgarib boradi. Tarbiya-o'sib kelayotgan yosh avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot, dunyoqarashni, insoniy e'tiqodni, burch va ma'suliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo'lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Tarbiya deb tarbiyachi o'zi xohlagan sifatlarni tarbiyalanuvchilarning ongiga singdirishi uchun ularning ruhiyatiga ma'lum maqsadga ko'ra tizimli ta'sir ko'rsatishiga aytiladi. Tarbiya bola tug'ilgandan to umrining oxirigacha davom etadigan jarayondir. O'rta Osiyo mutaffakkirlarining tarbiya haqidagi fikrlari, o'g'itlari shunday kuchga egaki, ular yoshlar qalbida insoniylik urug'larining unishiga, katta hayot yo'lga olib chiqishiga yordam beradi. Jumladan Bahovuddin Naqshbandiyning tarbiya haqidagi fikr mulohazalari g'oyat qimmatlidir. U barkamol insonni tarbiyalash dastlab odobdan boshlanishini ta'kidlab, shunday degan edi. "Adab xulqni chiroyli qilish so'z va fe'lni soz qilishdek, muhabbat samarasi, ya'ni muhabbat daraxtining urug'i hamdir. Agar adabdan ozgina nuqsonga yo'l qo'ysangiz, ham nimaiki qilsangiz ham beadablik ko'rinadi. Odam o'zining bir xil sifat va ko'rinishida olib yurishi lozimki, toki odamlarda unga tassaruf ta'masi paydo bo'lmasin" deydi. Abu Nasr Forobiy birinchi bo'lib ta'lim va tarbiyaga ta'rif bergan olimdir. Ta'lim- so'z va o'rganish bilangina amalga oshiriladi. Tarbiya esa amliyyot, ish-tajriba bilan ya'ni shu yo'l orqali amalga oshiriladi" deydi. Abu Nasr Forobiyning

fikricha, har bir shaxs munosib odam bo'lishi uchun unga ta'lim va tarbiya zarurdir. U ta'lim orqali nazariy kamolotga erishadi. Tarbiya orqali esa, kishilar bilan muloqotni, axloqiy qadr qimmatni va amaliy faoliyatni o'rganadi. Forobiy bolalarning fe'l atvoriga qarab tarbiya jarayonida qattiq yoki yumshoq usullaridan foydalanish kerak deb hisoblaydi. Yusuf xos xojib esa tarbiya kishini ezgulikka o'rgatmog'i kerak. Ezguning har ishi chiroyli, har bir qadami go'zal deydi. Yusuf Xos Xojib tarbiyani juda murakkab jarayon deb tushunadi. U beldan madorni, tandan quvvatni, ko'zdan nurni, dildan oromni, talab qiladi degan fikrni bildiradi. Abu Ali ibn Sino bola tarbiyasi haqida fikr bildirar ekan, bola tarbiyasini unga ism qo'yishdan boshlashni lozim deb topadi. Bolaga munosib ism tanlash ota onaning dastlabki, vazifasi deb biladi. Ibn Sino bola tarbiyasi bilan avvalo ota ona shug'ullanishi kerak deydi. Jaloliddin Devoniy bolaning tarbiya olishi, odob axloqli bo'lishi, uning keyingi tarbiyasiga bog'liq. Chunki hayotda har kuni bola ko'radigan, muloqotda bo'ladigan narsalar uning xulqiga yaxshi va yomon tomondan ta'sir etadi deydi. Munavvarqori bolalar tarbiyasida faqat ota onalar emas, balki muallim va keng jamoa javobgar ekanligini aytib, ulardan bolalarni axloqli qilib tarbiyalashni talab etadi. Munavvarqorining fikricha yosh avlodni tarbiyalash bilangina millatni uyg'otish, vatanni ozod qilish ma'naviyatini yuksaltirish, turmushni farovonlashtirish, mumkin deydi. Shu o'rinda birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil inson etib voyaga yetkazish, ta'lim tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim deb qabul qilishimiz kerak," degan fikrlarini bildirib o'tgan edi.

Tarbiya inson kamolotini uning xulq atvorini ma'naviy va madaniy hayotini belgilab beruvchi asosiy me'zon ekan, hozirgi kunda yosh avlodni tarbiyalash muhim vazifalarimizdan biridir. Yuqorida ta'kidlab o'tganidek, tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot masalasi bo'lib, xizmat qiladi. Bolani tarbiyasida ozgina yo'l qo'yilgan xato va e'tiborsizlik jamiyatimizga zarar yetkazishi mumkin. Shu sababli bolani tarbiyalashda har jihatdan e'tibor qaratishimiz kerak. Bu degani faqat bolalarga faqat kattalarga salom berish yoki kattalarga aftobuzda joy berish emas, balki uni ham ma'naviy, ham aqliy, ham iqtisodiy, ham jismoniy tomondan tarbiyalash zaruriyatini tug'diradi. Tarbiyaning turlari ko'p. Ularning barchasi bola uchun, bolani barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazish uchun xizmat qiladi. Jumladan bolalarda jismonan sog'lomlik, jismoniy tarbiyasi shakllangan bo'lib, uning axloqiy tarbiyasi bo'lmasa, yoki bolada mehnat tarbiyasi bo'lib, iqtisodiy tarbiyasi bo'lmasa, bunday bolani har tomonlama barkamol shaxs sifatida ko'rishimiz mumkin emas. Shu boisdan ham kelajak avlodni tarbiyalashda tarbiyaning barcha turlarini qo'llashimiz kerak. Ayniqsa hozirgi kunda bola tarbiyasi uchun atrof -muhit va insonlar ta'siri ham muhim hisoblanadi. U birinchi bo'lib tarbiyani oilada oladi, oilada tarbiyasi qanday bo'lsa, tashqarida shuni ko'rsatadi. Yoki bo'lmasa, Jalolliddin Devoniy aytganidek, har kuni bola ko'radigan, muloqotda

bo'ladigan , kishilar yoki narsalar uning xulqiga ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan bola tarbiyasida nafaqat ota onaning masuliyati, balki jamiyatning, atrof muhitning ham o'rni kattadir. Shuning uchun yosh avlodga har tomonlama tarbiya beraylik. Unda tarbiya orqali qanday yutuqlarga erishimiz mumkinligi , tarbiyaning inson hayotidagi o'rni qanchalar muhim ekanligi haqida ogohlantirishimiz darkor. Zero bizning kelajagimiz yoshlar qo'lidadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. R.A.Movlonova , N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova , M.K Shirinov, S.Hafizov " Umumiy pedagogika "Fan va texnologiya " nashriyoti 2018 , 528-bet
2. J.Hasanboyev , X.To'raqulov , I.Alqarov, N.Usmonov "Pedagogika" (pedagogika nazariyasi va tarixi) oliy o'quv yurtlari uchun darslik -Toshkent : "Nashr" 2011 , 456 bet
3. R.Mavlonova , O'. To'rayeva , K.Xoliqberdiyev, "Pedagogika" "O'qituvchi " nashriyot matbaa ijodiy uyi , Toshkent -2010
4. M.To'xtaxo'jayeva, S.Nishonova, "Pedagogika" Toshkent-2010